

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

**O'SIMLIKLAR KARANTINI VA HIMOYASI TIZIMI TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O'ZGARTISH VA  
QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RSIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 14-sentabrda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2021-yil 19-noyabrda ma'qullangan

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 3, 6-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 9, 193-modda, № 12, 269-modda; 1996-yil, № 5-6, 69-modda, № 9, 144-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 4-5, 126-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 3, 38-modda, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda, № 7-8, 217-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 165, 182-moddalar; 2002-yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 312-modda, № 12, 413, 417, 418-moddalar; 2006-yil, № 6, 261-modda, № 9, 498-modda, № 10, 536-modda, № 12, 656, 659-moddalar; 2007-yil, № 4, 158, 159, 164, 165-moddalar, № 9, 416, 421-moddalar, № 12, 596, 604, 607-moddalar; 2008-yil, № 4, 181, 189, 192-moddalar, № 9, 486, 488-moddalar, № 12, 640, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 9, 334, 335, 337-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 462, 468, 470, 472, 474-moddalar; 2010-yil, № 5, 175, 179-moddalar, № 6, 231-modda, № 9, 335, 339, 341-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 468, 473, 474-moddalar; 2011-yil, № 1, 1-modda, № 4, 104, 105-moddalar, № 9, 247, 252-moddalar, № 12/2, 365-modda; 2012-yil, № 4, 108-modda, № 9/1, 242-modda, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 341, 343-moddalar; 2015-yil, № 6, 228-modda, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 1, 2-modda, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 4, 137-modda, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4, 5-moddalar, № 4, 224-modda, № 7, 430, 431, 432-moddalar, № 10, 671, 673, 679-moddalar; 2019-yil, № 1, 1, 3, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3, 161, 165, 166-moddalar, № 5, 259, 261, 267, 268-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 469, 471-moddalar, № 9, 591, 592-moddalar, № 10, 674, 676-moddalar, № 11, 787, 791-moddalar, № 12, 880, 891-moddalar; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 3, 203, 204-moddalar, № 7, 449-modda, № 9, 539, 540-moddalar, № 10, 593, 596-moddalar, № 11, 651-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 5, 7, 12, 13, 14-moddalar № 2, 142-modda, № 3, 217-modda, № 4, 290, 293-moddalar, 4-songa ilova № 8, 800, 802, 803-moddalar) quyidagi o'zgartishlar kiritilsin:

1) 107-modda quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“107-modda. O'simliklar karantini obyektlariga va boshqa zararli organizmlarga qarshi kurashishga doir fitosanitariya talablarini (choralarini) hamda boshqa qoidalarni buzish**

O'simliklar karantini obyektlariga va boshqa zararli organizmlarga qarshi kurashishga doir fitosanitariya talablarini hamda boshqa qoidalarni karantin ostidagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, qayta ishlash, realizatsiya qilish va yo'q qilish chog'ida buzish —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Fitosanitariya choralariga rioya qilmaslik, shu jumladan o'simliklar karantini obyektlari va boshqa zararli organizmlar tarqalishining oldini olish choralarini ko'rmaganlik —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'z hududida o'simliklar karantini obyektlari va boshqa zararli organizmlarni aniqlagan, fitosanitariya dala nazoratini o'tkazish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini va

himoyasi agentligiga ixtiyoriy ravishda murojaat qilgan hamda ularning o'choqlari kengayishiga yo'l qo'ymaslik va ularni bartaraf etish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rgan shaxslar ma'muriy javobgarlikdan ozod etiladi”;

2) 108-moddaning **nomi** va birinchi qismining **dispozitsiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“108-modda. Karantin ostidagi mahsulotlarni olib kirish va olib chiqish qoidalarini buzish**

Karantin ostidagi mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va uning hududidan olib chiqish qoidalarini buzish”.

**2-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 31-avgustda qabul qilingan “O'simliklar karantini to'g'risida”gi 113-I-sonli **Qonuniga** (O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-iyulda qabul qilingan O'RQ-484-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 7, 429-modda; 2020-yil, № 1, 4-modda; 2021-yil, № 1, 13-modda, № 4, 287-modda, 4-songa ilova) quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) 3-moddaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**zararli organizm** — o'simliklarning, hayvonlarning yoxud kasallik qo'zg'atuvchi agentlarning o'simliklarga yoki o'simlik mahsulotlariga zarar yetkazuvchi har qanday turi, xili yoki biotipi;

**karantin ostidagi mahsulot** — o'simliklar karantini obyektlarini tashuvchilar bo'lishi mumkin bo'lgan o'simliklar, ularning qismlari, ekish materiallari, qayta ishlash mahsuloti, boshqa mahsulot va yuklar;

**karantin ruxsatnomasi** — karantin ostidagi mahsulotni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishga yoki uning hududidan tranzit tarzida olib o'tishga ruxsat berilganligini tasdiqlaydigan, O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan berilgan hujjat;

**karantin cheklovlari** — karantin ostidagi mahsulotni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishni, O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqishni, tashishni va undan foydalanishni o'simliklar karantini obyektlari tarqalishining oldini olish maqsadida muayyan muddatga cheklovchi fitosanitariya tadbirlari;

**fitosanitariya sertifikat** — karantin ostidagi mahsulotda o'simliklar karantini obyektlari mavjud emasligini tasdiqlovchi xalqaro namunadagi hujjat;

**fitosanitariya choralari** — o'simliklar karantini obyektlari kirib kelishining yoki tarqalishining oldini olishga yoxud tartibga solinadigan, karantin ostida bo'lmagan zararli organizmlarning iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishini cheklashga qaratilgan tartib-taomillar (ko'zdan kechirish, tahlil qilish, nazorat qilish, kurashish, taqiq qo'yish va boshqalar);

**fitosanitariyaga oid xavfni tahlil qilish** — o'simliklar karantini obyektlarini aniqlash va ular bo'yicha mutanosib fitosanitariya choralari qabul qilish maqsadida biologik, ilmiy va iqtisodiy ma'lumotlarni baholash jarayoni;

**fumigatsiya** — o'simliklar karantini obyektlarini va boshqa zararli organizmlarni yo'q qilish maqsadida ularni kimyoviy vositalarning gazlari bilan zararsizlantirish;

**o'simliklar karantini** — qishloq xo'jaligiga va boshqa o'simliklar dunyosiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan o'simliklar karantini obyektlari kirib kelishining, tarqalishining oldini olishga hamda bunday obyektlarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar majmui;

**o'simliklar karantini obyekti (karantin ahamiyatiga ega bo'lgan zararli organizm)** — O'zbekiston Respublikasi hududida mavjud bo'lmagan yoki cheklangan tarzda mavjud bo'lgan, tarqalishi katta iqtisodiy zarar keltirishi mumkin bo'lgan va karantin ahamiyatiga ega bo'lgan zararli organizmlarga qarshi kurashish obyekti hisoblangan zararli organizm;

**o'simliklar karantini obyektlarini tashuvchilar** — o'simliklar karantini obyektlarining tarqalishiga imkoniyat tug'dirishi mumkin bo'lgan transport vositalari, qishloq xo'jaligi mashinalari, erga ishlov berish qurollari, idishlarning barcha turlari, ayrim sanoat tovarlari, qadoqlash vositalari, shuningdek o'simlik materiallaridan tayyorlangan buyumlar, yaxlit toshlar, tuproq namunalari va (yoki) boshqa obyektlar”;

2) 4-moddaning **ikkinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Fitosanitariya talablari O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi (bundan buyon matnda O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlanadi”;

3) 6-moddaning **birinchi qismi**:

quyidagi mazmundagi yettinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“fitosanitariyaga oid xavf tahlilini o‘tkazish, zararli organizmlardan xoli zonalar va zararli organizmlar soni kam bo‘lgan zonalarni e‘lon qilish hamda bunday zonalar maqomini bekor qilish tartibini belgilaydi”;

**yettinchi xatboshisi** sakkizinchi xatboshi deb hisoblansin;

4) 3-bobning **nomi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“3-bob. O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha davlat xizmati tizimi. O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha davlat xizmatiga rahbarlik qilish”;**

5) 9 va 10-moddalar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“9-modda. O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha davlat xizmati tizimi**

O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha davlat xizmati tizimini:

O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, viloyatlar va Toshkent shahar o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmalari;

tuman (shahar) o‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limlari;

O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti (bundan buyon matnda O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti deb yuritiladi);

Respublika agrokimyoviy tahlil markazi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi va viloyatlardagi chigirtkaga va tut parvonasiga qarshi kurashish xizmatlari;

“Biosifat” respublika markazi;

o‘simliklar karantini bo‘yicha tashqi iqtisodiy faoliyat chegara punktlari, o‘simliklar karantini bo‘yicha davlatlararo chegara punktlari, respublika ichki avtomobil yo‘llaridagi, temir yo‘l stansiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portidagi o‘simliklar karantini chegara punktlari va pochtamdagi o‘simliklar karantini punkti tashkil etadi.

O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi o‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organidir.

O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, viloyatlar va Toshkent shahar o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmalari O‘simliklar karantini va himoyasi agentligiga, shuningdek tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga bo‘ysunadi.

Tumanlar va shaharlarning o‘simliklar karantini davlat inspektorlari, o‘simliklar karantini bo‘yicha tashqi iqtisodiy faoliyat chegara punktlari, o‘simliklar karantini bo‘yicha davlatlararo chegara punktlari, respublika ichki avtomobil yo‘llaridagi, temir yo‘l stansiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portidagi o‘simliklar karantini chegara punktlari va pochtamdagi o‘simliklar karantini punkti tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligiga, viloyatlar va Toshkent shahar o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmalariga bo‘ysunadi.

**10-modda. O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha davlat xizmatiga rahbarlik qilish**

O‘zbekiston Respublikasining o‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha davlat xizmatiga rahbarlikni O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi amalga oshiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida o‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha davlat xizmatiga rahbarlikni tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, viloyatlar va Toshkent shahar o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmalari amalga oshiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, viloyatlar va Toshkent shahar o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmalarining boshliqlari O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taqdimnomasiga binoan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod qilinadi. Tuman va shaharlarning o‘simliklar karantini davlat inspektorlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, viloyatlar va Toshkent shahar o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmalari tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod qilinadi.

O‘simliklar karantini bo‘yicha tashqi iqtisodiy faoliyat chegara punktlaridagi, o‘simliklar karantini bo‘yicha davlatlararo chegara punktlaridagi, respublika ichki avtomobil yo‘llaridagi, temir yo‘l stansiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portidagi o‘simliklar karantini chegara punktlaridagi va pochtaamdagi o‘simliklar karantini punktidagi o‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha davlat xizmatiga o‘simliklar karantini bo‘yicha tegishli chegara punktlarining O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan lavozimga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod qilinadigan mudirlari boshchilik qiladi”;

6) 11-modda:

nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“11-modda. O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining vakolatlari”;**

birinchi qismi:

birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi”;

o‘ninchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“o‘simliklar karantini bo‘yicha tashqi iqtisodiy faoliyat chegara punktlari, o‘simliklar karantini bo‘yicha davlatlararo chegara punktlari, respublika ichki avtomobil yo‘llaridagi, temir yo‘l stansiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portidagi o‘simliklar karantini chegara punktlari va pochtaamdagi o‘simliklar karantini punkti, shuningdek zararsizlantirish (fumigatsiya) bo‘limlari, chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurashish xizmatlari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaydi”;

o‘n uchinchi xatboshisidagi “o‘simliklar karantini obyektlariga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus fumigatsiya bo‘linmalarini” degan so‘zlar “zararsizlantirish (fumigatsiya) bo‘limlarini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

o‘n to‘qqizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi uchun karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan zararli organizmlar ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi”;

quyidagi mazmundagi yigirmanchi — o‘ttizinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“fitosanitariyaga oid xavf tahlilini o‘tkazadi;

fitosanitariya choralarini ishlab chiqadi va qo‘llaydi;

zararli organizmlardan xoli zonalarni va o‘simliklar karantini obyekti soni kam bo‘lgan zonalarni belgilaydi, zaruratga qarab bunday zonalarning maqomini bekor qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi hududi uchun potensial xavf tug‘diradigan zararli organizm aniqlangan yoki bunday holatlar to‘g‘risida xabar qilingan taqdirda, tezkor choralar ko‘radi;

karantin ostidagi mahsulotda, shuningdek o‘simliklar karantini ahamiyatiga ega bo‘lmagan, foydalanilishi katta iqtisodiy zarar keltirishi mumkin bo‘lgan va shu munosabat bilan fitosanitariya choralarini ko‘rilishi lozim bo‘lgan ekish materialida zararli organizmlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishning oldi olinishi ustidan nazorat olib boradi;